

YOSHLARNI ILM OLISHGA QIQIZTIRISH VA MUNOSIB TA'LIM TIZIMINI
YARATISH.

Bakirova Nazokatxon Muxtorovna

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan viloyati Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar boshqarmasi Chust tumani 2-son kasb-hunar maktabi
ingliz tili fani o'qituvchisi
+998999774281 nazokatxonbakirova3@gmail.com*

Abstract. *Maqola o'quvchilarni ilm olishlari uchun to'g'ri yo'l ko'rsatish, ta'limni yoqimli qilish uchun qanday tadbirlar olib borish kerakligi, ilmning inson hayotidagi ahamiyati va o'rnining muhim ekanligini ko'rsatib bera olish yo'llari hamda tortinchoq talabalarni ilg'or qilib, ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq va qiziqarli qilish orqali ularni ilm olishga rag'batlantirish mumkinligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *ta'lim jarayoni, zamonaviy uskunalar, gadjetlar, pedagogik texnologiyalar, rag'batlantirish, amaliyot, o'quv markazlari, baholash tizimi, multimedia asboblari, laboratoriya, amaliyot.*

Annotation. *The article shows the right way for students to learn, what activities should be done to make education enjoyable, ways to show the importance and place of science in human life, and It is said that shy students can be encouraged to learn by advancing them and making the learning process relevant and interesting.*

Key words. *educational process, modern equipment, gadgets, pedagogical technologies, motivation, practice, training centers, assessment system, multimedia tools, laboratory, practice.*

Barchamizga sir emaski so'ngi yillarda yoshlarning ilmga bo'lgan qiziqishi, e'tibori va hurmati sezilarli darajada so'nib bormoqda. Bunga albatta bir necha omillar sabab bo'lishi mumkin.

1. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida ilmga, ta'limga bo'lgan e'tiborning susayib ketganligi; ta'lim tizimida ishlovchi xodimlarni tekin mardikorga aylantirilgani va o'qituvchilarga past maosh to'langani; ilmiy ishlar, ilmiy yutuqlarni rag'batlantirishga bo'lgan e'tiborsizlik; sifatsiz darsliklar; sifatsiz o'quv dasturlari...

2. Maktab binolari, moddiy ba'zasi yillar davomida hukumat nazaridan chetda qolganligi; maktablarda dars jarayoni uchun eng muhim, kerakli jihozlarning yetiahmasligi; xatto ko'plab chekka hududda joylashgan maktablarda sinf xonalari yoki oddiy partalarning yetishmasligi...

3. Past maosh tufayli ko'plab erkak o'qituvchilar, bilimli va malakali kadrlarni ta'lim sohasini tashlab boshqa serdaromadroq ish tanlashga majbur bo'lgani; yosh avlod ko'z o'ngida ilmi insonlarga yetarli rag'bat berilmay nazardan chetda qolib ketgani va yana bir necha omillarni sanab o'tish mumkin.

So'ngi yillarda yuqoridagi muammolarni anglagan holda prizidentimiz Sh.M Mirziyoyev boshchiliklarida ta'limni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan bir necha islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirish maqsadida talaygina ishlar qilindi. Bundan tashqari maktablar uchun zamonaviy, dunyo standartlariga javob beradigan o'quv dasturlari va darsliklar joriy etildi. So'ngi yillarda O'zbekistonda bir necha o'nlab yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Biroq afsuski, bir necha yillar davomida ta'limni e'tiborsiz qoldirishning oqibatlarini tuzatishni, bo'shliqlarning o'rnini to'ldirishning osongina va qisqa muddatda hal qilish imkonsiz albatta. Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan'anaviy usullarini jamiyat hayoti va ta'lim tizimiga tadbiq etish lozim. Masalan ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash, nazariyani amaliyot bilan uyg'unligini anglatsa, barcha ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, yoshlarning startap loyihalarini qo'llab quvvatlashga qaratilgan platformalarni yaratish, kelajak egalari ishtiyoqini yanada oshirib, ilm-fanga bo'lgan qiziqishini yuksaltiradi. Ilmiy muassasa va tashkilotlarning ilmiy salohiyatini oshirish, xorijiy nufuzli ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, yosh olimlar va ilmiy tadqiqotchilar almashinuvini yanada kengroq amalga oshirish Uchinchi Renessans sari dadillik bilan qarab borayotganimizni ko'rsatadi. Bir ko'rinishdan qilinayotgan harakatlar salmoqli, biroq natijalar xususida bunday deyishga hali erta. Qonun bilan belgilangan imtiyozlar o'z manziliga yetib borishi, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishda ham ba'zi oqsoqliklar bor. Demak muammolar hali yetarlicha topiladi. Masalaning yechimini topish mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirishda yoshlarning o'rnini beqiyos. Qariyb 20 million yoshlari bor O'zbekiston bunday katta va yangi avlod bilan yangi uyg'onish davrining tamal toshini qo'yish arafasidadir. Islohotlarni amalga oshirishda rivojlangan davlatlar tajribalariga tayanib ish ko'rish ham muhim omil sanaladi. Masalan, Koreys mo'jizasining omillaridan biri mehnatsevar aholisi bo'lsa, yana bir jihati Janubiy Koreyadagi o'ziga xos ta'lim tizimidir. 2015 yilga kelib, o'quv dasturidan o'rin olgan barcha materiallarni kompyuter orqali raqamli ko'rinishda uzatish imkoni bo'ladi. Darsliklardagi barcha ma'lumotlar kitob sahifalari o'rniga ekranlarda paydo bo'ladi.

Janubiy Koreyaning Ta'lim, fan va texnologiya vaziri Ju-Xo Li "Smart Ta'lim" strategiyasi ustida ishlayotganliklarini aytdi.

O'tgan yoz amalga oshirish boshlangan loyiha barcha maktablarda vayerless - simsiz tarmoqlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Bu esa o'z navbatida talabalarga "hamma vaqt va hamma joyda" bilim olish imkonini beradi.

Bu kabi ta'lim-axboorot tizimiga turli-tuman jihozlar, kompyuterdan tortib, noutbuk, va internetga ulangan televizorlar orqali ulanish mumkin.

"Smart Ta'lim bizning darsliklar haqidagi qarashlarimizni tubdan o'zgartiradi", deydi janob Li.

Unga ko'ra, an'anaviy darslik kitoblaridan raqamli darsliklarga o'tish o'quvchi-talabalarga "og'ir va qappaygan sumkalarini orqada qoldirib, sinf xonasidan tashqaridagi dunyoni kashf etish imkonini beradi".

Yangi tizim shuningdek, mutaxassis o'qituvchilar yetishmaydigan qishloq hududlarida o'quvchi va talabalar uchun fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniyatini yaratishi aytilmoqda. Iqtisodiy Muvofiqlashtiruv va Taraqqiyot Tashkiloti olib borgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, janubiy koreyalik 15 yoshli talabalar 16 ta rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari orasida raqamli texnologiyalardan eng ustalik bilan foydalanishadi.

Ular internetdagi axborotni baholash, uning ishonchliligini tekshirish va internet sahifalarini navigatsiya qilish bo'yicha birinchi o'rinni egallashgan.

Janubiy Koreyaning bu sohadagi ustunligi tasodifiy emas.

Birlashgan Millatlarning fan, ta'lim va madaniyat agentligi- YuNESKOga ko'ra, Janubiy Koreya ta'lim sohasida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni diqqat bilan nazorat qilib kelgan.

Janubiy Koreya o'qish darajasi bo'yicha dunyoda ikkinchi, matematika sohasida to'rt va tabiiy fanlar bo'yicha beshinchi o'rinda turadi.

1945 yilda mamlakat aholisining 78 foizi savodsiz bo'lgan bo'lsa, hozirda Janubiy Koreya savodxonlik bo'yicha barcha Ovro'po davlatlari va AQShdan o'zib ketgan.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, yoshlarga ilm berishni qiziqarli va yoqimli mashg'ulotga aylantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishim mumkin;

1. Interaktiv dva multimedia asboblari:

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchilarni darslar ustida qiziqtirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv darsliklar, video darslar, virtual kutubxonalar va boshqa multimedia asboblari o'quvchilarni ta'lim materiallariga qiziqtirishni oshirishga yordam beradi.

2. O'quvchilarni dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklarga qiziqtirish:

O'quvchilarni jahon yangiliklari, ilmiy izohlar, yangi ilmiy izlanishlar, va so'ngi texnologiyalarga qiziqtirish orqali darslarga qiziqishlarini oshirish mumkin. Bu, ularning ilmiy muloqotlarga qatnashishlari va o'z fikrlarini ifodalashlari uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

3. Real hayot bilan bog'liq darslar:

O'quvchilarni o'zgaruvchan, qiziqtirichi, va so'nggi yangilanishlar qo'shilgan darslar tashkil etish juda muhim. Darslar samarali bo'lishi uchun real hayotda yuz bergan muammolar, masalalar va hodisalar bilan bog'liq bo'lishi foydali bo'ladi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va bloglar:

O'quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan va ilmiy bloglardan foydalanish orqali dars materiallarini o'qish, o'z fikrlarini bayon etish va o'quvchilar o'rtasida tajriba almashishlari mumkin. Bu ularning ilm olishda hamkorlik qilishlarini ta'minlaydi.

5. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriyalar:

O'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va boshqa amaliyotlar orqali dars materialini amaliyotga o'tish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviylashtirish foydalidir.

6. Individual yondashuv: O'quvchilar individual xususiyatlarini o'zlashtirish uchun shaxsiy ta'lim yo'nalishlarini taqdim etishga e'tibor qaratish. Har bir talabaning o'zining qobiliyatlariga va qiziqishi ga ega bo'lgan yondashish tizimi yaratish kerak.

7. Hamkorlik: O'qituvchilar, ota-onalar, va o'quv markazlari orasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Bunda, har bir taraflar o'quvchilarni ilm olish jarayonida yordam bera olishi va ularga qo'llab-quvvatlashi kerak.

8. Tekshirish va Baholash: O'quv natijalarini tahlil qilish, talabalarni tekshirish va ularning rivojlanishini baholash tizimi yaratish. Bu ta'lim tizimini yomonlashtiradigan muammolarni aniqlash va hal qilishda yordam bera oladi.

REFERENCES

1. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 55-bet.

2. Shuxrat Sattorov, "Biz g'alaba qozonamiz","Bilim va intellektual salohiyat" nashriyoti 2018

3. <https://mininnovation.uz/oz/news/2322> <https://xs.uz/uz/post/alisher-sadullaev-yoshlar-uchinchi-renessans-drajverlari-bola-oladimi>

4. BBC News Uzbek

5. <https://zenodo.org/record>